TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING BADIIY-IJODIY FAOLIYAT XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

A.D. Xushvaqtov
Nizomiy nomidagi O‘ZMPU
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari kafedirasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *O‘quvchilarning tasviriy san'at darslaridagi tasviriy-ijodiy faoliyati, estetik didi hamda ijodiy faoliyatini yaxshilash haqida fikr yuritiladi. Tasviriy san’at darslarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitishning maxsus yondashuvlari va bolalarni nazorat qilishning ahamiyati alohida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ranglar ifodasi, bolalar ijodiyoti, tasviriy san’at, interaktiv o‘quv texnalogiyalar, tasviriy faoliyat, tasavvur, badiiy-ijodiy qobiliyatlar, badiiy tarbiya, rasm chizishning psixologik jihatlari, harakatlar va malakalar.*

Insoniyat taraqqiyotida san’at har doim muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, bugungi kunda uning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ta’lim sohasida esa har bir bolaning shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishi uchun sharoit yaratish asosiy vazifalardan biridir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar ham badiiy ijodkorlik sohasida o‘z imkoniyatlarini to‘la ochishlari mumkin. Tasviriy san’at darslari ularga ijodiy fikrlash, idrok etish va hissiy dunyolarini boyitish imkoniyatini beradi. Eshitish muammolari bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash, ularning ichki dunyosini ochishga yordam

berish, badiiy tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ham ega.

Badiiy-ijodiy qobiliyat — bu insonning go‘zallikni anglash, ifodalash, yaratish va uni boshqalar bilan o‘rtoqlashish qobiliyatidir. Tasviriy san’at darslari, asosan, rang, shakl, kompozitsiya, va estetik prinsiplar bilan ishlashni o‘rgatadi, lekin bu jarayonda tasavvur va ijodiy fikrlashning rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun tasviriy san’at faqat vizual san’at bilan cheklanmaydi, balki ular o‘zlarini ijodiy jihatdan ifodalash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar badiiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda asosiy maqsad shundaki, o‘quvchi o‘z dunyosini tushunib yetib, uni to‘g‘ri va samarali tarzda ifodalashni o‘rganishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, bu jarayonni yanada qiyinroq kechirishlari mumkin. Ammo tasviriy san’at darslari ularning tasavvurini kengaytirish, yangi ifoda vositalarini topish va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ta’lim jarayoni ko‘pincha murakkablashadi, chunki eshitish qobiliyati o‘quvchilarning og‘zaki va vizual axborotni qabul qilishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ular musiqa, tovush va boshqa eshitish materiallariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Eshitish nuqsoni o‘quvchining o‘zini ifodalash imkoniyatlarini cheklashi mumkin, shuningdek, badiiy tasavvurni rivojlantirishda ham bazi qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Biroq, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitishda to‘g‘ri metodikalar qo‘llanilganda, ularning ijodiy va tasviriy salohiyati yaxshilanishi mumkin. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga eshitish materiallarini to‘g‘ri tushunishga yordam berish, vizual tasavvur va ko‘rinishlar orqali ularning badiiy ifodalarini kengaytirish va rivojlantirishda samarali usullarni qo‘llash zarur. Rasm chizishda bolalarni rangli qalam, flomaster, mo‘yqalamni farqlay bilishga, turli rasm va tasvirlar chizishga o‘rgatish, bunda bolalar

diqqatini tasviriy materiallarning qog‘ozda muayyan iz qoldirishi, qog‘ozda nima chizilgani, turli chiziqlar va ularning o‘zaro birlashib ketishi natijasida nima tasvirlaganiga qaratish kerak bo‘ladi. Bolalarni qalam yordamida egri chiziqlar, doiralar, gorizontal, vertikal, uzun-qisqa chiziqlarni chizish, mazkur chiziqlar yordamida turli timsollar (qorparchalar, bayram kunlari bezak-tasmalari) ni chizishga o‘rgatish kerak. Bolalarni chiziq va tasvirlar orqali atrof-borliqdagi mavjud hodisalarni anglash va farqlashga tarbiyachi bilan birga yoki individual yakka o‘zi rasmlar “daraxt barglari to‘kilmoqda”, “daraxt barglaridan qurish-yasash” ishlarini amalga oshirish “daraxt butoqlarida qor”, “qorli kunlarda biror tasvirni topish” kabilarni o‘rgatish bolalarda kuzatuvchanlik va sinchkovlikni oshirishga zamin yaratadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni tasviriy san’at darslarida qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy ahamiyati katta. Ular uchun badiiy ifoda o‘zini tasavvur qilish va jamiyatda teng huquqli fuqarolar sifatida qatnashish imkoniyatlarini yaratadi. Tasviriy san’at orqali ular o‘z hissiyotlarini, fikrlarini va orzularini boshqalarga yetkazishda mustahkam asosga ega bo‘ladilar. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni san’at orqali qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, jamiyatga ijtimoiy va madaniy jihatdan to‘liq integratsiya qilishlariga yordam beradi. Bu orqali ular badiiy faoliyatlarini rivojlantirib, o‘z orzularini amalga oshirish yo‘lida muhim qadam tashlashadi. Tasviriy san’at darslarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni ta’limlashda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning o‘rni beqiyosdir. Badiiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish nafaqat san’atning o‘ziga, balki o‘quvchilarning ichki dunyosini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

O‘quvchilarning vizual va eshitish tajribalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda, ular yangi dunyoqarash va ijodiy yondashuvlarni o‘zlashtiradilar. Tasviriy san’at darslari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning badiiy ifodalarini yanada kengaytirishga, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tibor beriladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda badiiy ijodiy faoliyatni

rivojlantirishda eng samarali yo‘l - bu ko‘p qirrali yondashuvni qo‘llash hisoblanadi. Vizual, taktil va kinestetik usullarni uyg‘unlashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish - bularning barchasi bolalarning ijodiy salohiyatini to‘la ochib berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.N.Mamarajabova, K.G.Sadirova Tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasi (eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar misolida) o‘quv qo‘llanma Toshkent-2024
2. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 9. [26-28]
3. Nazarova D.A. Mamarajabova Z.N. “Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)” Toshkent – 2019
4. Harry G.Lang, John Albertini - Yeducating deaf students - Oxford University Press, 2006